

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.12.2019.T.03.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

SOTVOLDIYEV XUSNIDDIN IBRAGIMOVICH

**NOSTATSIONAR TEXNOLOGIK OBYEKTЛАRNI MUNTАZАM
USULLAR ASOSIDA IDENTIFIKАTSIYALASH VA BOSHQARISH
ALGORITMLARI**

**05.01.08 - Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni
avtomatlashtirish va boshqarish**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Sotvoldiyev Xusniddin Ibragimovich

Nostatsionar texnologik obyektlarni muntazam usullar asosida identifikatsiyalash
va boshqarish algoritmlari 3

Сотволдиев Хусниддин Ибрагимович

Алгоритмы идентификации и управления нестационарными
технологическими объектами на основе регулярных методов 21

Sotvoldiyev Khusniddin Ibragimovich

Algorithms for identification and control of non-stationary technological
objects based on regular methods39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works42

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.12.2019.T.03.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

SOTVOLDIYEV XUSNIDDIN IBRAGIMOVICH

**NOSTATSIONAR TEXNOLOGIK OBYEKTЛАRNI MUNTАZАM
USULLAR ASOSIDA IDENTIFIKАTSIYALASH VA BOSHQARISH
ALGORITMLARI**

**05.01.08 - Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni
avtomatlashtirish va boshqarish**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FАLSАFА DOKTORI (PhD) DISSERTАTSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.2.PhD/T2846 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.dtu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Igamberdiyev Xusan Zakirovich texnika fanlari doktori, professor, O'zR FA akademigi
Rasmiy opponentlar:	Baratov Dilshod Xamidullayevich texnika fanlari doktori, professor Varlamova Lyudmila Petrovna texnika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.03.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «15» 11 soat 10⁰⁰ daqiqa dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2. Tel.: (99871) 246-46-00; faks: (99871) 227-10-32; e-mail: tsu_info@dtu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (346 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2. Tel.: (99871) 207-14-70.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «2» 11 kuni tarqatildi.
(2023-yil «6» 10 daqiqa 23 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.R. Yusupbekov
N.R. Yusupbekov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor, akademik

U. Mamirov
U. Mamirov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, dotsent

Sevinov J.U.
Sevinov J.U.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar rais o'rinbosari,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda zamonaviy axborot texnologiyalarning rivojlanishi, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatik boshqarish, nazorat qilish sohasida turli funksional mo'ljallanishli nostatsionar texnologik obyektlarni identifikatsiyalash, boshqarish usullarini yangilash va ularga algoritmlar ishlab chiqish bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Texnologik jarayonlarni boshqarish tizimlarining keng klassi har xil tipdagi ishdan chiqishlar, tashqi muhitning o'zgarishlari, to'liq bo'lmagan va noaniq boshlang'ich va joriy axborotda ichki transformatsiyalanishlar sharoitlarida faoliyat ko'rsatish bilan tavsiflanadi. Bunday obyektlar klassini boshqarish tizimlarini qurishning qiyinligi obyekt parametrlarining nostatsionarliligi bilan bog'lanadigan muammolarni hal qilish zarurligi bilan bog'lanadi. Mazkur sohada nostatsionar texnologik obyektlarni identifikatsiyalash va boshqarish algoritmlarini ishlab chiqish muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Jahonda ilmiy hamjamiyat tomonidan turli ko'rinishdagi nostatsionar texnologik jarayonlarni boshqarish va nazorat qilish tizimlari sifatini o'zgartirishga qaratilgan ahamiyatli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu munosabat bilan nostatsionar texnologik obyektlarni moslashuvchan identifikatsiyalash uslublari va algoritmlarini takomillashtirish va modifikatsiyalash, nostatsionar texnologik obyektlarni moslashuvchan boshqarish algoritmlarini ishlab chiqish muhim masala bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi ulkan o'zgarishlar bo'layotgan davrda mamlakatimizda ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqarish tarmoqlarida, jumladan turli ko'rinishdagi nostatsionar texnologik obyektlarni avtomatlashtirish va boshqarish tizimlarida energiyatejamkorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi, takomillashtirilgan boshqarish tizimlarini yaratish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida "... 2026-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25% ga yetkazish, O'zbekiston energetika tizimining qo'shni davlatlar energetika tizimlari bilan barqaror ishlashini ta'minlash, sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish" bo'yicha qator vazifalar belgilab berilgan¹. Mazkur vazifalarni bajarishda, jumladan, nostatsionar texnologik obyektlarni identifikatsiyalash va boshqarish jarayonlarining aniqligi va sifat ko'rsatkichlarini oshirishga ko'maklashuvchi usullar va algoritmlarni yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF- 60-son "2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 27-apreldagi PQ-3682-son "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amalga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 23-avgustdagi PQ-3238-son "Zamonaviy energiya samarador va energiya tejaydigan texnologiyalarni yanada joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 2019-yil 22-avgustdagi PQ-4422-son "Iqtisodiyot

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» Farmoni.

tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejevchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Keyingi yillarda nostatsionar texnologik obyektlarni identifikatsiyalash va boshqarish usullari va algoritmlarini ishlab chiqishni tadqiq qilishga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlili mazkur sohada kattagina nazariy va amaliy yutuqlarga erishilganini ko‘rsatadi. Nostatsionar texnologik obyektlarni identifikatsiyalash va boshqarish algoritmlari bo‘yicha juda ko‘plab ishlar bajarilgan bo‘lib, bu ishlarni rivojlantirishga xorijiy olimlardan N.N.Karabutov², Yang Jian-Bo³, I.B.Furtat⁴, A.M.Skunov⁴, M.V.Jirov⁵, V.V.Makarov⁵, G.P.Pletnev⁶, Yu.S.Tverskoy⁷, va boshqalar hamda mamlakatimiz olimlaridan N.R.Yusupbekov⁸, X.Z.Igamberdiyev^{8,9,10,11}, A.R.Maraximov⁹, I.X.Siddikov⁹, O.O.Zaripov¹⁰, A.N.Yusupbekov^{9,10}, J.U.Sevinov¹¹, U.F.Mamirov⁸ va boshqalar o‘zlarining ulkan hissalarini qo‘shganlar.

Bundan tashqari, ilmiy izlanishlar ko‘laming muntazam murakkablashib va rivojlanib turishi nostatsionar texnologik obyektlarni identifikatsiyalash va boshqarishning takomillashgan, samarali yangi usul va algoritmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shuningdek, nostatsionar dinamik obyektlarni barqaror identifikatsiyalash va moslashuvchan boshqarish algoritmlarini ishlab chiqishni amalga oshirish, mavjudlarini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Shu jihatdan, tadqiqot ishlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish nostatsionar dinamik obyektlarning moslashuvchan boshqarish tizimlarini qurish va amalga oshirishning algoritmik protseduralari spektrini kengaytirish imkonini beradi. Tahlil qilingan ilmiy ishlar asosida shuni ta‘kidlash

2 Карабутов Н.Н. Адаптивная идентификация систем: Информационный синтез. Изд.стереотип. 2016.- 384 с.

3 Yang Jian-Bo; Li, Duan Normal Vector Identification and Interactive Tradeoff Analysis Using Minimax Formulation in Multiobjective Optimization./In: IEEE Transactions on Systems, Man, and Cybernetics Part A:Systems and Humans., Vol. 32, No. 3, 05.2002, p. 305-319.

4 Фуртат И.Б., Цыкунов А.М. Робастное управление нестационарными объектами с неизвестной переменной относительной степенью // Управление большими системами, 2011, Выпуск 33, –С. 91-112.

5 Жиров М.В., Макаров В.В., Солдатов В.В. Идентификация и адаптивное управление технологическими процессами с нестационарными параметрами. -М.: МГТУ им. Н.Э. Баумана, 2011. -208 с.

6 Плетнев Г.П. Автоматизация технологических процессов и производств в теплоэнергетике: учебник для студентов вузов / Г. П. Плетнев - Москва: Издательский дом МЭИ, 2016. -360 с.

7 Тверской, Ю.С. Автоматизация пылеугольных котлов электростанций [Электронный ресурс]: монография / Ю.С. Тверской. — Электрон.дан. — Санкт-Петербург: Лань, 2018. — 472 с.

8 Yusupbekov N., Igamberdiev H., Mamirov U. (2022) Algorithms for Robust Stabilization of a Linear Uncertain Dynamic Object Based on an Iterative Algorithm. In: Kahraman C., Cebi S., Cevik Onar S., Oztaysi B., Tolga A.C., Sari I.U. (eds) Intelligent and Fuzzy Techniques for Emerging Conditions and Digital Transformation. INFUS 2021. Lecture Notes in Networks and Systems, vol 307. Springer

9 Марахимов А.Р., Игамбердиев Х.З., Юсупбеков А.Н., Сидиков И.Х. Нечетко множественные модели и интеллектуальное управление технологическими процессами. –Т.: ТашГТУ, 2014. –240 с.

10 Игамбердиев Х.З., Юсупбеков А.Н., Зарипов О.О. Регулярные методы оценивания и управления динамическими объектами в условиях неопределенности. – Т.: ТашГТУ, 2012. –320 с.

11 Игамбердиев Х.З., Севинов Ж.У., Зарипов О.О. Регулярные методы и алгоритмы синтеза адаптивных систем управления с настраиваемыми моделями. - Т.: ТашГТУ, 2014.

kerak-ki, nostatsionar texnologik obyektlarni identifikatsiyalash va boshqarishning samarali algoritmlarini yaratish va modifikatsiyalashda muntazamlashtirish usullaridan foydalanish zarurati vujudga kelmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F4-78 – “Identifikatsion yondashuv asosida dinamik obyektlarni adaptiv boshqarish tizimlari sintezining nazariy asoslari va muntazam usullarini ishlab chiqish” (2017-2020 yy.) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi nostatsionar texnologik obyektlarni muntazam usullar asosida identifikatsiyalash va boshqarish algoritmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

nostatsionar dinamik obyektlarni identifikatsiyalash va boshqarish usullarining hozirgi kundagi holati va rivojlanishini tizimli tahlil qilish;

kuzatish ma'lumotlari bo'yicha nostatsionar dinamik tizim holati xarakteristikalarini turg'un identifikatsiyalash algoritmlarini ishlab chiqish;

tasodifiy parametrlarga ega bo'lgan chiziqli dinamik obyektning parametrik identifikatsiyalashning muntazam algoritmini ishlab chiqish;

chiziqli nostatsionar tizimlarni moslashuvchan identifikatsiyalashning muntazam algoritmlarini ishlab chiqish;

noaniqlik sharoitlarida nostatsionar tizimlarni moslashuvchan boshqarish algoritmlarini ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan algoritmlarni sanoat nostatsionar obyektlarini boshqarish tizimlarini sintezlash masalalarida amaliy qo'llash.

Tadqiqotning obyekti sifatida nostatsionar texnologik obyektlar olingan.

Tadqiqotning predmeti nostatsionar dinamik obyektlarni muntazam usullar asosida identifikatsiyalash va boshqarish usullari va algoritmlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida tizimli tahlil, identifikatsiyalash, baholash, adaptiv boshqarish va nokorrekt qo'yilgan masalalarni yechish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

chiqish matritsasiga psevdoteskari reja matritsasini hisoblash asosida nostatsionar dinamik tizim holatining xarakteristikalarini muntazam identifikatsiyalash algoritmlari ishlab chiqilgan;

matritsa operatorini o'ngdan elementar ortogonal aylanish matritsalariga va chap tomonda almashtirish matritsalariga yoyishlar asosida nostatsionar tizimlarni turg'un parametrik identifikatsiyalash algoritmlari ishlab chiqilgan;

boshqarish jarayonlarining sifat ko'rsatkichlarini oshirishga yordam beruvchi pseudoag'darish konsepsiyasi asosida nostatsionar obyektlarni adaptiv suboptimal boshqarishni sintezlash algoritmi ishlab chiqilgan;

yuqori darajali aprior noaniqligi mavjud jarayonlarni klassik boshqarish usullarining samarasizligi sharoitlarida boshqarish qarorlarini optimallashtirishga imkon beruvchi nostatsionar obyektlarni boshqarishning turg'un algoritmlari o'yin usullari konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nostatsionar texnologik obyektlarni adaptiv boshqarish tizimlarini turg'un sintezlash masalalarini yechishni algoritmik qo'llab quvvatlash uchun mo'ljallangan dasturiy modullar yaratilgan;

o'tkazilgan texnik eksperiment natijalari asosida normal faoliyat ko'rsatish sharoitlarida issiqlik elektrstansiyalaridagi qozonga ko'mir kukunini to'g'ridan-to'g'ri puflaydigan tizimning matematik modeli ishlab chiqilgan;

qozonga ko'mir kukunini to'g'ridan-to'g'ri puflash texnologik jarayonini avtomatlashtirish va adaptiv boshqarishning strukturaviy va funksional sxemalari ishlab chiqilgan;

mos keluvchi texnik ta'minotga ega bo'lgan qozonga ko'mir kukunini to'g'ridan-to'g'ri puflaydigan tizimlarda kukunni berish texnologik jarayonining kechishi va ularni turg'unlashtirish imkonini beruvchi boshqarish tizimi taklif qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi uslubiy jihatdan asoslangan nazariy hisob-kitoblarning amalga oshirilishi, nostatsionar texnologik obyektlarni identifikatsiyalash va adaptiv boshqarish konsepsiyalarining nazariy asoslangan mezonlarining qo'llanilishi, zamonaviy avtomatik boshqarish nazariyasining amaliy sinovdan o'tgan usullari va algoritmlarining ishlatilishi, adaptiv boshqarishning taklif etilgan usullari va algoritmlarining talab darajadagi yaqinligi, nazariy va amaliy tadqiqotlarning olingan natijalari va ularning o'zaro muvofiqligi bilan ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nostatsionar texnologik obyektlarni identifikatsiyalash va adaptiv boshqarish tizimlarini sintezlashning konstruktiv algoritmlari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati nostatsionar texnologik obyektlarni adaptiv boshqarish tizimlarining funksional strukturalarini qurish va loyihalashni avtomatlashtirishda keng qo'llanilishi mumkin bo'lgan adaptiv identifikatsiyalash va boshqarish tizimlarini turg'un sintezlash masalalarining matematik va algoritmik ta'minotining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nostatsionar texnologik obyektlarni muntazam usullar asosida identifikatsiyalash va boshqarish algoritmlarini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

nostatsionar dinamik tizim holatining xarakteristikalarini turg'un identifikatsiyalash algoritmlari "Yangi-Angren IES" da joriy qilingan ("Issiqlik elektr stansiyalari" AJning 2023-yil 7-fevraldagi 04-25/456-son ma'lumotnomasi). Natija kuzatish ma'lumotlari bo'yicha nostatsionar dinamik tizim holatini baholash aniqligini oshirish imkonini bergan;

nostatsionar tizimlarni turg'un parametrik identifikatsiyalash algoritmlari "Yangi-Angren IES" da joriy qilingan ("Issiqlik elektr stansiyalari" AJning 2023-yil 7-fevraldagi 04-25/456-son ma'lumotnomasi). Natija real vaqtda obyekt parametrlarini turg'un identifikatsiyalash imkonini bergan;

nostatsionar obyektlarni turg'un boshqarish algoritmlari "Yangi-Angren IES" da joriy qilingan ("Issiqlik elektr stansiyalari" AJning 2023-yil 7-fevraldagi 04-25/456-son ma'lumotnomasi). Natija jarayonlarning aprior noaniqligining yuqori darajasida klassik boshqarish usullari samarasiz bo'lgan sharoitlarda boshqarish qarorlarini optimallashtirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari jami 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami bo'lib 24 ta ilmiy ishlar e'lon qilingan. Shulardan 8 ta maqola O'zbekiston Respublikasi OAK tomonidan falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining asosiy natijalarini e'lon qilish tavsiya qilingan jurnallarda, jumladan 3 ta ish xorijiy jurnallarda e'lon qilingan. Shuningdek EHM uchun dasturiy mahsulotlarning rasman ro'yxatga olinganligi to'g'risida 5 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning strukturasi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 107 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi asoslab berilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijdagi ilmiy tadqiqotlarning sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi ifodalangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy jihatdan yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

“Nostatsionar dinamik obyektlarni identifikatsiyalash va boshqarish usullarining bugungi kundagi holati va rivojlanishini tizimli tahlil qilish” deb nomlangan birinchi bobida nostatsionar dinamik boshqarish obyektlarining o'ziga xos xususiyatlari keltirilgan, nostatsionar dinamik obyektlarni identifikatsiyalash va boshqarish usullari va algoritmlari ko'rib chiqilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari qo'yilgan.

Zamonaviy sanoat ishlab chiqarishida materialga/moddaga ishlov berishning har qanday bosqichida yuqori avtomatlashtirish darajasi o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatik boshqarish tizimlaridan foydalanish texnologik jarayon kechishining xavfsizlik darajasini oshirish zarurligi, shuningdek qurilmalar va umuman ishlab chiqarishning iqtisodiy ko'rsatkichlarining ortishi bilan shartlanadi. Qoidaga ko'ra, sanoatda uchraydigan texnologik jarayonlarning (qurilmalarning) ko'pchiligi o'zida nostatsionar boshqarish obyektlarini namoyon qiladi.

Nostatsionarlik boshqarish obykti sifatidagi texnologik jarayonning muhim tavsifi bo'lib hisoblanadi va birinchi navbatda atrof-muhit sharoitlarining o'zgarishlari, kirib kelayotgan xomashyo xususiyatlarining o'zgarishlari, texnologik jarayonda uskunalarni qayta sozlash va almashtirish, ularning yedirilishi va eskirishi bilan bog'lanadigan ichki o'zgarishlar ta'siri ostida texnologik jarayonning xususiyatlarining o'zgarishi bilan shartlanadi.

Texnologik jarayonlarda qaysidir nazorat qilinadigan kirish kattaligi ko'pligiga va qaysidir bir nazorat qilinadigan chiqish kattaligi ko'pligi mos keladi. Ko'p o'lchamli texnologik jarayonlarda esa bir nechta kirishlar va bir nechta chiqishlarga ega bo'lganligi bois ularni nostatsionar dinamik obyektlar sifatida qarash lozim

bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan xulosalar asosida mazkur dissertatsiya ishida chiziqli va nochiziqli nostatsionar texnologik obyektlarni adaptiv identifikatsiyalash va boshqarish algoritmlarini ishlab chiqishda muntazamlashtirish usullaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. Tadqiqot ishi bo'yicha belgilan masalalarning hal qilinishi nostatsionar parametrlar texnologik jarayonlarni moslashuvchan boshqarish tizimlarining faoliyat ko'rsatishining samaradorligini oshirishga ko'maklashuvchi hisoblash sxemalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Nostatsionar texnologik obyektlarni adaptiv identifikatsiyalash algoritmlari”** nomli ikkinchi bobi kuzatish ma'lumotlari bo'yicha nostatsionar boshqarish obyektlarini parametrik identifikatsiyalashning muntazam algoritmlarini ishlab chiqishga bag'ishlangan.

Texnologik jarayonlarni boshqarish masalalarini hal qilishda ko'pincha nostatsionar dinamik tizimlarning quyidagi ko'rinishga ega modellaridan foydalaniladi

$$\frac{dx}{dt} = f(x, t; b_f, \varphi(x, t)), \quad (1)$$

bu yerda x – tizimning holat $m \times 1$ o'lchamga ega vektori; t – vaqt; $f(\cdot)$ - ma'lum nochiziqli vektor funksiyasi; b_f – tizim parametrlarining $p_f \times 1$ o'lchamga ega vektori; $\varphi(x, t)$ – tizimning faza koordinatalari va vaqtiga nochiziqli bog'liq bo'lgan noma'lum tavsiflarning vektori. $x_0 = x(t_0)$ (1) dinamik tizimning boshlang'ich shartlari, t_0 – tizimni kuzatish boshlangan vaqt.

O'lchami $q \times 1$, $q = m + p_f + p_\varphi$ bo'lgan $a = [x_0^T b_f^T b_\varphi^T]^T$ -vektor belgilashni barcha parametrlarni baholash maqsadida kiritamiz.

Shunda o'lchashlar modeli quyidagi xarakterga ega bo'ladi:

$$z_i = g_i(a) + \omega_i,$$

bu yerda ω_i – o'lchashlar xatolarining tasodifiy vektori, $g_i(a) = g_i(x(t_i, a), t_i)$ – baholanadigan parametrlarning nochiziqli vektor-funksiyasi.

Kvadratlik funksionalni ko'rib chiqamiz

$$Q(a) = (g(a) - z^u)^T P (g(a) - z^u) = \|g(a) - z^u\|_P^2 \rightarrow \min, \quad (2)$$

bu yerda $g(a) = [g_1^T(a) \dots g_n^T(a)]^T$, $z^u = [(z_1^u)^T \dots (z_n^u)^T]^T$, $D_i^{-1}, i = 1, 2, 3, \dots, n = \text{diag} P$.

(2) funksionalning a bo'yicha minimumining zaruriy sharti asosida q nochiziqli algebraik tenglamalar tizimini yozishimiz mumkin, bu esa a^* – baholanadigan parametrlar vektorining optimal bahosini aniqlash imkonini beradi. Parametrik identifikatsiyalash masalalarida parametr bo'yicha analitik davom ettirish uslubining har bir qadami tartib bo'yicha ishga tushiriladigan tutashgan gradiyentlar uslubining protseduralari va Gauss-Nyuton usuliga asoslangan kombinatsiyalangan iteratsion hisoblash protsedurasidan foydalanadi.

Tutashgan gradiyentlar usulining har bir qadami

$$C \Delta a = d,$$

ko'rinishdagi normal chiziqli algebraik tenglamalar tizimini yechish yo'li bilan

baholanadigan parametrlarga tuzatmalar vektorini aniqlaydi, ya'ni $\Delta a = C^+ d$, bu yerda $C = H^T P H$; $d = H^T P(z^u - g(a))$.

C matritsa yomon shartlangan yoki buzilgan matritsa bo'lsa, u holda psevdoylantirish protsedurasining barqarorligini oshirish uchun quyidagi ko'rinishdagi muntazam protseduralardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi

$$C^+ = T^T (T T^T + \alpha I)^{-2} T.$$

Bu yerda α muntazamlashtirish parametrini modelli misollar usuli asosida aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Keltirilgan algoritmlar reja matritsasini teskarisiga aylantirish protsedurasini barqarorlashtirishga va shu tariqa kuzatishlar ma'lumotlari bo'yicha nostatsionar dinamik tizim holatining tavsiflarini identifikatsiyalash algoritmlarining aniqligini oshirishga ko'maklashadi.

Nostatsionar tizimlar uchun bo'lakli-chiziqli parametrlarni identifikatsiyalash masalasini ko'rib chiqamiz. Aytaylik, tasodifiy koeffitsiyentlarga ega bo'lgan, quyidagi tenglamalar bilan tasvirlanadigan chiziqli dinamik tizim mavjud bo'lsin:

$$\begin{aligned} x_k &= a_1(k)x_{k-1} + \dots + a_p(k)x_{k-p} + b_1(k)u_{k-1} + \dots + b_q(k)u_{k-q} + \sigma_0 \varepsilon_k, \quad k = 1, 2, \dots, \\ a_i(k) &= a_i + \sigma_i \eta_i(k), \quad b_j(k) = b_j + \Delta_j \gamma_j(k), \quad k = 1, 2, \dots, \end{aligned} \quad (3)$$

bu yerda $\{\varepsilon_k\}, \{\eta_i(k)\}, i = \overline{1, p}, \{\gamma_j(k)\}, j = \overline{1, p}$, - nolli o'rtacha va birlik dispersiyaga ega bo'lgan bir xil taqsimlangan mustaqil tasodifiy kattaliklarning mustaqil ketma-ketliklarini tasvirlaydi; $\{u_k\}$ - kiruvchi ta'sirlarning ma'lum bir ketma-ketligi;

$X_0 = (x_0, x_{-1}, \dots, x_{-p+1})$ vektor $E\|X_0\|^2 < +\infty$ dan $\{\varepsilon_k\}, \{\eta_i(k)\}, \{\lambda_j(k)\}$ ketma-ketliklarga bog'liq bo'lmagan boshlang'ich ta'sirlarni tasvirlaydi; $\sigma_0 > 0, \sigma_i \geq 0, \Delta_i \geq 0$ - doimiy parametrlar.

$\{x_k\}$ jarayonni kuzatish natijasida noma'lum bo'lib hisoblanadigan $\theta = (a_1, \dots, a_p, b_1, \dots, b_q)^T$ parametrlar vektorining bahosi aniqlanishi lozim. Quyidagi belgilashlardan foydalanamiz: $X_{k-1} = (x_{k-1}, \dots, x_{k-p})^T, U_{k-1} = (u_{k-1}, \dots, u_{k-q})^T$ $\xi_k = (\sigma_0 \varepsilon_k, 0, \dots, 0)^T$, shunda (3) tenglamani vektor ko'rinishda yozish mumkin:

$$X_k = A_k X_{k-1} + B_k U_{k-1} + \xi_k,$$

bu yerda A_k va B_k - mos ravishda $p \times p$ va $p \times q$ o'lchamlarga ega bo'lgan matritsalar

$$A_k = A + \Gamma_k, \quad B_k = B + R_k,$$

$$A = \begin{bmatrix} a_1 & \dots & a_p \\ \dots & \dots & \dots \\ I_{p-1} & & 0 \end{bmatrix}, \quad B = \begin{bmatrix} b_1 & \dots & b_q \\ \dots & \dots & \dots \\ 0 & \dots & 0 \\ \dots & \dots & \dots \\ 0 & \dots & 0 \end{bmatrix}, \quad \Gamma_k = \begin{bmatrix} \sigma_1 \eta_1(k) & \dots & \sigma_p \eta_p(k) \\ 0 & \dots & 0 \\ \dots & \dots & \dots \\ 0 & \dots & 0 \end{bmatrix}, \quad R_k = \begin{bmatrix} \Delta_1 \gamma_1(k) & \dots & \Delta_q \gamma_q(k) \\ 0 & \dots & 0 \\ \dots & \dots & \dots \\ 0 & \dots & 0 \end{bmatrix},$$

bu yerda I_{p-1} - $p-1$ tartibli birlik matritsa.

Yuqorida aytilganidek, $\theta = (a_1, \dots, a_p, b_1, \dots, b_q)^T$ (1) dinamik tizimning noma'lum parametrlar vektorini hisoblanadi, uni baholash uchun EKKU baholarining ketma-ket variantidan foydalanamiz. Bu quyidagi tenglamalar tizimi bilan

ifodalanuvchi yangi ma'lumotlar kelishi bilan parametrlarni baholashni ketma-ket yangilashga asoslangan:

$$M_n \cdot \theta(n) = c, \quad (4)$$

bu yerda

$$M_n = \sum_{k=1}^n Y_{k-1} Y_{k-1}^T, \quad Y_{k-1} = (X_{k-1}^T, U_{k-1}^T)^T, \quad c = \sum_{k=1}^n Y_{k-1} x_k, \quad n \geq n_0, \quad n_0 = \inf \{l \geq 1; \lambda_{\min}(M_l) > 0\},$$

$\lambda_{\min}(A)$ – A matritsaning minimal o'zining qiymatini bildiradi, keltirilgan hol uchun approksimatsiyalash sharti $\|\tilde{c} - \bar{c}\| \leq \delta$, $\|\tilde{M}_n - \bar{M}_n\| \leq h$.

(4) tenglamalar tizimida boshlang'ich ma'lumotlarning kichik o'zgarishlarida yechimning katta o'zgarishlari sodir bo'ladi, ya'ni tizim yomon shartlangan bo'ladi.

Shunga muvofiq, real vaqt mobaynida obyekt parametrlarini turg'un identifikatsiyalashga imkon beradigan, EKKU baholashlarining ketma-ket varianti asosida kafolatlangan o'rtakvadratlik aniqlik bilan tasodifiy parametrlarga ega bo'lgan chiziqli dinamik obyektini tasodifiy parametrlar bilan parametrlilik identifikatsiyalashning muntazam algoritmlari ishlab chiqilgan.

Bu yerda, shuningdek Kachmaj proyeksiya algoritmi asosida monoton va doimiy parametrlarga ega splaynlardan foydalanib, nostatsionar tizimlarni ortogonal polinomlar asosida barqaror parametrik identifikatsiyalash algoritmlari hamda chiziqli nostatsionar tizimlarning parametrlarini aniqlash uchun ishlab chiqilgan muntazamlashgan algoritmlar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning «**Nostatsionar texnologik obyektlarni adaptiv boshqarish algoritmlarini ishlab chiqish**» nomli uchinchi bobida axborotlar to'liq bo'lmaganda va noaniqliklar sharoitida nostatsionar tizimlarni moslashuvchan (adaptiv) boshqarish tizimlarini sintezlash algoritmlarini ishlab chiqish natijalari keltirilgan.

Moslashuvchan boshqarish tizimlari klasslari orasida statik algoritmlar asosida ichki konturning parametrlarini identifikatsiyalash va rostlagichning parametrlarini qayta qurishga asoslangan etalon modeli bilvosita moslashuvchan boshqarish tamoyiliga asoslangan klass o'zining amaliy natijaviyligi bilan ajralib turadi.

Boshqariladigan va kuzatiladigan obyekt quyidagi tenglama ko'rinishida taqdim qilinadi deb faraz qilamiz:

$$\begin{aligned} \dot{x}(t) &= A_0(t)x(t) + B_0(t)u(t) + w(t), \quad x(t_0) = x_0, \\ y(t) &= Cx(t) + v(t), \end{aligned} \quad (5)$$

bu yerda

$$\begin{aligned} M[x_0] &= 0, \quad M[x_0 x_0^T] = X_0, \quad M[w(t)] = M[v(t)] = 0, \quad M[x_0 v^T(t)] = 0, \\ M[x_0 w^T(t)] &= 0, \quad M\left[\begin{pmatrix} w(t) \\ v(t) \end{pmatrix} \begin{pmatrix} w^T(\tau) & v^T(\tau) \end{pmatrix}\right] = \begin{bmatrix} W & G \\ G^T & V \end{bmatrix} \delta(t - \tau). \end{aligned}$$

Tenglamada x_0 – ko'p o'lchovli normal taqsimlanishga ega bo'lgan tasodifiy vektor (Gauss vektori); $A_0(t)$, $B_0(t)$, W , V va G – noma'lum matritsalar bo'lib hisoblanadi. Sifat funksionalining minimumi uchun suboptimal bo'lib hisoblanadigan $u(t)$ boshqarishni qurish zarur

$$J(x, u) = \frac{1}{2} M \left[x^T(T) F x(T) + \int_{t_0}^T \begin{pmatrix} x^T(t) & u^T(t) \end{pmatrix} \begin{pmatrix} Q & 0 \\ 0 & R \end{pmatrix} \begin{pmatrix} x(t) \\ u(t) \end{pmatrix} dt \right], \quad (6)$$

bu yerda Q – $(n \times n)$ o‘lchamga ega bo‘lgan va musbat yarim aniqlangan matritsa bo‘lib hisoblanadigan matritsa, F, R – mos ravishda $(n \times n)$ va $(m \times m)$ o‘lchamlarga ega bo‘lgan va musbat aniqlangan matritsalar bo‘lib hisoblanadigan matritsalar, $T - t_0$ berilgan bo‘lib hisoblanadi va obyektning vaqt doimiysidan ancha katta, $u(t)$ chegaralanmagan bo‘lib hisoblanadi. $x(t)$ obyektning holatini kuzatish xatosini kiritamiz va uni $\varepsilon(t)$ orqali belgilaymiz: $\varepsilon(t) = x(t) - \hat{x}(t)$.

Aytaylik A^0 va B^0 parametrlarning etalon qiymatlari oldindan berilgan bo‘lsin. Ular parametrik g‘alayonlantiruvchilar bo‘lmaganda obyektning dinamikasini belgilaydi, ya’ni (5) uchun parametrlar bo‘lib hisoblanadigan $A_0(t)$ va $B_0(t)$ quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$A_0(t) = A^0 + a(t), \quad B_0(t) = B^0 + b(t).$$

Moslashuvchan rostlagich ishlashi davomida vaqtning har bir onida quyidagi ko‘rsatilganidek ba’zi shartlarning bajarilishini ta’minlash zarur:

$$B_0(t)H_1(t) = \Delta a(t), \quad B_0(t)H_2(t) = \Delta b(t),$$

bu yerda $\Delta a(t)$ va $\Delta b(t)$ quyidagi tenglamaning parametrlari bo‘lib hisoblanadi:

$$\dot{x}(t) = (A^0 + a(t) + \Delta a(t))x(t) + (B^0 + b(t) + \Delta b(t))u(t) + w(t), \quad x(t_0) = x_0.$$

Bundan tenglamaning parametrlari quyidagi shartlarni qanoatlantirishi kelib chiqadi:

$$\lim_{t \rightarrow \infty} [A^0 + a(t) + \Delta a(t)] = A^0, \quad \lim_{t \rightarrow \infty} [B^0 + b(t) + \Delta b(t)] = B^0.$$

$\Delta a(t)$ va $\Delta b(t)$ uchun bunday shartlar bajarilishi uchun moslashuvchanlik shartlarini amalga oshirish zarur bo‘ladi. Moslashuvchan rostlagichning koeffitsiyentlarini aniqlash uchun quyidagi bog‘lanishlardan foydalanish mumkin:

$$H_1(t) = B_0^+(t)\Delta a(t), \quad H_2(t) = B_0^+(t)\Delta b(t), \quad (7)$$

bu yerda $B_0^+(t) = B_0(t)$ matritsaga nisbatan psevdoteskari matritsa.

(7) dagi $B_0(t)$ matritsa $k < m$ to‘liq bo‘lmagan rangli matritsa bo‘lib hisoblanadi deb taxmin qilamiz. Shunda ortogonal $n \times n$ – Q matritsa, ortogonal $m \times m$ – W matritsa va diagonal $n \times m$ – R matritsa mavjud bo‘ladi

$$Q^T B W = R, \quad B = Q R W^T, \quad (8)$$

bu yerda

$$R = \left[\begin{array}{c|c} R_{11} & 0 \\ \hline 0 & 0 \end{array} \right], \quad (9)$$

bunda R_{11} – buzilmagan uchburchak $k \times k$ – matritsa.

Shunday qilib, $B = Q R W^T$ ortogonal yoyilma uchun psevdoteskari matritsa $B^+ = W R^+ Q^T$ ifoda bilan aniqlanadi, bu yerda R^+ quyidagi formula bilan beriladi:

$$R^+ = \left[\begin{array}{c|c} R_{11}^{-1} & 0 \\ \hline 0 & 0 \end{array} \right], \quad B^+ = W \left[\begin{array}{c|c} R_{11}^{-1} & 0 \\ \hline 0 & 0 \end{array} \right] Q^T.$$

Agar B uchun (8) singulyar qiymatga yoyilsa va (9) dagi R_{11} ning bosh diogonalida nollik elementlar mavjud bo‘lmasa, u holda yetarlicha kichik $\|B_0(t) - B^0\|$ da yaqinlashtirilgan nisbatlardan foydalanish mumkin.

(6) funksionalning yuqorida tasvirlangan separabellik xususiyatidan foydalanish bilan boshqarish tizimini moslashuvchan koordinatali boshqarishni qo'llash bilan optimallashtiramiz $u(t) = -R^{-1}B_{\phi}^T(t)S_{\phi}(t)\hat{x}(t)$.

Moslashuvchan koordinatali boshqarishni qurish uchun moslashuvchan filtrdan foydalanamiz

$$\hat{\dot{x}}(t) = A_{\phi}(t)\hat{x}(t) + B_{\phi}(t)u(t) + K_{\phi}(t)[y(t) - C\hat{x}(t)], \quad \hat{x}(t_0) = 0.$$

Ushbu filtr filtrlashning minimal o'rtacha kvadratik xatosini ta'minlaydi.

Keltirilgan turg'un psevdoylantirish usullari asosida nostatsionar obyektlarni moslashuvchan suboptimal boshqarishni sintezlash algoritmlari boshqarish jarayonining sifat ko'rsatkichlarini oshirish imkonini beradi.

O'yin usullari tushunchalari asosida nostatsionar obyektlarni boshqarishning turg'un algoritmlarini qurish savollarini ko'rib chiqamiz. Nostatsionar boshqarish obyektining matematik ifodasi quyidagi ko'rinishda berilgan:

$$x_{i+1} = A_i v + B_i \bar{u}_{1i}, \quad i = 1, 0, \dots, I, \quad (10)$$

bu yerda $A_i = \|a_{in}\|$ - matritsa $a_{in}, n = 1, 2, \dots, N$ koeffitsiyentlardan tashkil topgan matritsa-qatori, $v = (v_1, v_2, \dots, v_N)^T$ - g'alayonlar vektori; $B_i = \|b_{ir}\|$ - matritsa $b_{ir}, r = 1, 2, \dots, x$ koeffitsiyentlardan tashkil topgan matritsa-qatori; \bar{u}_{1i} - ta'sirlar u_1, u_2, \dots, u_i vaqt bo'yicha boshqarishlarning ketma-ketligi. Ushbu holatda (10) tizimning u_0 boshqarish ta'siri uchun boshlang'ich shart yo'q, bu masalaning murakkabligiga olib keladi.

Boshqarishda quyidagi tengsizlik bajarilishi lozim:

$$|u_i| \leq U_i, \quad i = 1, 2, \dots, I, \quad (11)$$

bu yerda U_i - qiymat u_i absolyut kattalikning maksimal qiymati.

G'alayonlar va o'lchash xatolarining kattalıkları mos ravishda $V_n, n = 1, 2, \dots, N$ va $H_i, i = 1, 2, \dots, I$ quyidagi absolyut qiymatlardan katta emas:

$$|v_n| \leq V_n, \quad |h_i| \leq H_i. \quad (12)$$

U holda obyekt tenglamasini quyidagicha yozamiz:

$$\bar{x}_{i+1}^* = A_i v, \quad i = 0, 1, \dots, I, \quad (13)$$

bu yerda $A_i - A_r, r = 0, 1, \dots, i$ qatorlardan tuzilgan matritsa bo'lib hisoblanadi.

Dinamik dasturlash tamoyilidan foydalanib, dastavval I diskret moment uchun u_i^* boshqarishni aniqlaymiz. Mezonni quyidagi ko'rinishda yozamiz

$$\inf_{u_i \in \omega_k} \sup_{v, \bar{h}_i \in \omega_n} \left| A_i v + \sum_{r=1}^{I-1} b_{ir} u_r + b_{ii} u_i \right|. \quad (14)$$

Shunda u_i kattalikni (11) chegaralash bo'lmaganda (14) mezon va (13) ifodani hisobga olish bilan quyidagi ko'rinishda taqdim qilish mumkin:

$$u_i^* = -\frac{1}{b_{ii}} \left(G_i \bar{y}_i^* + \sum_{r=1}^{I-1} b_{ir} u_r \right), \quad (15)$$

bu yerda $G_i = \|g_{ii}\|$ - optimal boshqarishning qidirilayotgan koeffitsiyentlarining

matritsa-qatori bo‘lib hisoblanadi; u_i^* ; $\bar{y}_i^* - x_i^*, i = 1, 2, \dots, I$ kattaliklarning o‘lchangan qiymatlaridan tuzilgan vektor bo‘lib hisoblanadi.

(15) mezonni hisobga olish bilan (14) ni quyidagicha yozish mumkin:

$$\inf_{G_l} \sup_{v, \bar{h}_l \in \omega_n} |A_l v + G_l \bar{y}_l^*|,$$

shunda:

$$\Gamma v = z, \quad (16)$$

bu yerda $\Gamma = \theta^{(l)} A_{l-1}$, $z = \theta^{(l)} \bar{x}_l^*$, $\theta^{(l)} = \|\mathcal{G}_{nl}^{(l)}\|$ – ixtiyoriy koeffitsiyentlarning matritsasi $\mathcal{G}_{nl}^{(l)}$, $n = 1, 2, \dots, N$; $l = 1, 2, \dots, I$.

(16) tenglamani approksimatsiyalash shartlarini quyidagi ko‘rinishda qabul qilamiz:

$$\|\tilde{\Gamma} - \Gamma\| \leq h, \quad \|\tilde{z} - z\| \leq \delta.$$

(16) tenglamani yechish jarayonining noto‘g‘riligini hisobga olish bilan A.N.Tixonovning muntazamlashtirish uslubini qo‘llash mumkin:

$$M_\alpha[v] = \|\Gamma_h v - z_0^*\|^q + \alpha \|v\|^r, \quad q \geq 1, \quad r > 1.$$

Kuzatiladigan qiymatlar va bashorat qilingan qiymatlar orasidagi kvadratik farqlar yig‘indisini minimallashtirish orqali $\alpha \geq 0$ muntazamlashtirish parametrini tanlab, quyidagini olamiz: $\psi(\alpha) = \|\Gamma_h v_\alpha - z_0^*\| + h \|z_\alpha\| \rightarrow \min$, $v_\alpha = \arg \min_{v \in Z} M_\alpha[v]$.

Ishda kengaytirilgan muntazamlashtirilgan normal tenglamalar tizimidan ham foydalanilgan:

$$\begin{bmatrix} \omega I_m & \Gamma \\ \Gamma^T & -\omega I_n \end{bmatrix} \begin{bmatrix} u \\ \theta \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} z^* \\ 0 \end{bmatrix} \Leftrightarrow \tilde{\Gamma}_\omega v = \tilde{z}_\omega^*, \quad (17)$$

bu yerda $u = \omega^{-1} r$, $r = z^* - \Gamma v$, $\omega = \alpha^{1/2}$.

(17) kengaytirilgan muntazamlashtirilgan tizimning $v_\omega = \begin{bmatrix} u_\omega \\ v_\omega \end{bmatrix}$ yechimi

